

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**KAMOLIDDINZODA NURIDDIN JALOLIDDIN O‘G‘LI**

**DISKRET TOLALAR OQIMINI TRANSPORTIROVKALASH  
JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA PNEVMOMEXANIK IP  
SIFATINI OSHIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va  
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of  
philosophy (PhD) on technical sciences**

**Kamoliddinzoda Nuriddin Jaloliddin o'g'li**

Diskret tolalar oqimini transportirovkalash jarayonini takomillashtirish asosida pnevmomexanik ip sifatini oshirish .....

3

**Камолиддинзода Нуридин Жалолиддин угли**

Улучшение качества пневмомеханической пряжи на основе совершенствования процесса транспортировки дискретного потока волокон .....

21

**Kamoliddinzoda Nuriddin Jaloliddin o'g'li**

Improvement of pneumomechanical yarn quality based on improving the transportation process of discrete fiber flow .....

43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....

47

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**KAMOLIDDINZODA NURIDDIN JALOLIDDIN O‘G‘LI**

**DISKRET TOLALAR OQIMINI TRANSPORTIROVKALASH  
JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA PNEVMOMEXANIK IP  
SIFATINI OSHIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va  
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3 PhD/T5973 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.titli.uz](http://www.titli.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Matismailov Sayfulla Lolashbaevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xanxadjayeva Nilufar Raximovna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Egamberdiyev Fazliddin Otaqulovich**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 22 yanvar soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.:(+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail:[titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz), Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti ma'muriy binosi, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (266-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.:(+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 8 yanvar kuni tarqatildi.  
2026 yil 8 yanvar № 266-raqamli reystr bayonnomasi).



**X.X.Kamilova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**A.Z.Mamatov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

**Sh.Sh.Xakimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahonda global tola ishlab chiqarish hajmi 2024-yilda 124 million tonnani tashkil etdi. 2030-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 160 million tonnagacha ko'tarilishi kutilmoqda. To'qimachilik sanoatining rivojlanib borishi yangi takomillashgan ip yigirish mashinalarini ishlab chiqarilishi bilan bevosita bog'liq. Ko'plab to'qimachilik korxonalarini pnevmomexanik yigirish mashinalari bilan jihozlanib hozirgi kunga kelib yetakchi o'rirlarni egallamoqda. Keng turdag'i sifatli yigirilgan ip assortimentlarini ishlab chiqarilishini tashkil etish, mahalliy lashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarining eksport salohiyatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Yigirilgan iplarni, ishlab chiqarish jarayonlariga ijobjiy ta'sir etadigan texnologik parametrlarni optimallashtirish, yigirishning yangi texnika va texnologiyalarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda halqali yigirish mashinalarining unumdorligini kamligi va tannarx ko'rsatkichlarining yuqoriligi sababli, mashina ishlab chiqaruvchilar va texnologlar e'tiborini ip yigirishning boshqa usullarini yaratilishiga qaratilgan ilmiy tatqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, pnevmomexanik yigirish mashinasining mexanizmlarini takomillashtirish orqali, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, mashinalarni ishchi parametrlarini mahsulot sifat ko'rsatkichlariga mos holatda sozlash kabi tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, pnevmomexanik yigirish mashinasining diskret tolalar oqimini transportirovkalash jarayonini mahsulot sifatini yaxshilashga, ularni takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqishga hamda pnevmomexanik ip ishlab chiqarish hajmini oshirish masalalari dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish" qayd etilgan, xususan "...to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish" vazifasi belgilab berilgan<sup>1</sup>. Ushbu vazifalarni bajarishda to'qimachilik sanoati yigirilgan iplarning sifat ko'rsatkichlarini tubdan o'zgartirish, raqobatbardosh ko'rsatkichlarga ega bo'lgan ip ishlab chiqarish muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21-yanvardagi PF-53-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishslash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024-yil

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

1-maydagi PF-71-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalgalashirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur ilmiy tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoni o‘rganilganlik darjasи.** Jahonda pnevmomexanik usulda yigirilgan ipning fizik-mexanik xossa ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari xorijiy olimlar, jumladan Kwasniak J., Matsumoto Y.I., Cheng K.B., Lawrence C.A., Chen K.Z., Eskandarnejad S.A., Zhang L.H., Kong L.X., Lin H., Zeng Y. hamda rus olimlardan I.G. Borzunov, N.M.Ashnin, Y.V.Pavlov, K.I.Badalov, E.M.Kraynov, C.N.Xripunov, F.M.Plexanovlar va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Respublikamizda pnevmomexanik yigiruv mashinalarida xomashyoni ta’minlash, tolalarni diskretlash va taransportirovkalash jarayoni samaradorligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar R.Z.Burnashev, A.Djuraev, J.K.Jumaniyazov, K.G‘.G‘ofurov, S.L.Matismailov, J.K.G‘ofurov, J.K.Yuldashev, Sh.A. Korabaev, K.I.Axmedov, O.Mirzaev, J.Q. Yuldashev, Sh.R.Aripova va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida, pnevmomexanik yigirish mashinasi takomillashtirilib, iplarning sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanganligi ko‘rsatilgan. Shunga qaramay yigirish kamerasiga tolalar oqimini transportirovlakash jarayonida kanalning kirish qismida zararli havo uyurmalarini hosil bo‘lishi va kanalning ichki qismida tolalar o‘zaro ustma-ust tushishi natijasida chigalliklarning shakllanishi kabi muammolar mavjud. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha deyarli tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmaganligi aniqlandi. Ushbu masalalarni o‘rganish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanib, ushbu dissertatsiya mavzusini tanlashga asos bo‘ldi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoati institutini ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № 27/2025 “Pnevmomexanik yigirish mashinasining transportirovkalash kanalini takomillashtirish orqali yigirilgan ip ishlab chiqarish” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** pnevmomexanik yigirish mashinasining diskret tolalar oqimini transportirovkalash kanalini takomillashtirish asosida yigirilgan ip sifatini oshirishdan iborat.

### **Tadqiqot vazifalari:**

pnevmomexanik yigirish mashinasining transportirovkalash kanali konstruktsiyasini ishlab chiqish hisobiga pnevmomexanik ip yigirish texnologiyasini takomillashtirish;

pnevmomexanik yigirish mashinasini transportirovkalash kanalida havo harakatini tolalarga ta’sirini nazariy va amaliy tadqiq etish;

pnevmmomexanik yigirish mashinasining transportirovkalash kanalidagi havo oqimi tezligi va kanal qirralari qiyalik burchaklarining tolalar oqimiga ta'sirini aniqlash;

yigirilgan ip ishlab chiqarish jarayonida takomillashtirligan transportirovkalash kanalini qo'llash orqali pnevmmomexanik yigirish mashinasini shaylash parametrlari ratsional qiymatlarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida pnevmmomexanik yigirish mashinasi, paxta tolasi, yigirilgan ip va transportirovka kanali olingan.

**Tadqiqotning predmeti** pnevmmomexanik ip yigirish mashinalarda takomillashtirilgan transportirovka kanali orqali tolalarni yigirish kamerasiga uzatish jarayonini yigirilayotgan ip sifat ko'rsatkichlariga ta'siri hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida paxta tolasini sifatini aniqlashda HVI tizimi, to'qimachilik materiallarini zamonaviy o'lchov asboblarida sinash, ipning sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda esa Uster statictics 2023 mezoni orqali baholash, hamda nazariy va amaliy mexanika qonuniyatları, matematik statistika va hisoblash matematikasining regression modelini qurish usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

pnevmmomexanik yigirish mashinasining yigirish kamerasiga diskret tolalar oqimini uzlusizligini ta'minlovchi olti qirraga ega bo'lgan transportirovkalash kanali ishlab chiqish hisobiga pnevmmomexanik ip yigirish texnologiyasi takomillashtirilgan;

Eyler qonuniyatiga asosan takomillashtirligan transportirovkalash kanalidagi tolalar oqimining harakat tenglamasi olingan;

transportirovkalash kanalidagi tolalarning paralelligiga, uzlusizligiga ta'sir qiluvchi havo oqimi tezligi va kanal qirralarining qiyalik burchagini ifodalovchi bog'lanishlar ishlab chiqilgan;

pnevmmomexanik yigirish mashinasida takomillashtirilgan transportirovkalash kanalini qo'llab, mashinaning asosiy ishchi organlarining ratsional parametrlari ko'p omilli matematik modellar asosida aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ipga qo'yilgan talablardan kelib chiqib, ularning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va oshirish maqsadida transportirovkalash kanali takomillashtirilgan;

takomillashgan transportirovkalash kanalini qo'llash orqali yigirilgan ipning pishiqligi, notekisligi va tukdorlik darajasi yaxshilanishi uchun kanal ichidagi tolalar harakati nazariy tadqiq etilgan hamda olib borilgan tajribalar natijalarida o'z isbotini topgan;

olingoan natjalarni tahlili asosida takomillashgan konstruksiyadagi transportirovkalash kanalini ishlatishda pnevmmomexanik yigirish mashinasining ratsional shaylash parametrlari taklif qilingan;

**Tadqiqotning natjalarining ishonchliligi** nazariy va eksperimental tadqiqotlarning mosligi, aprobatsiya va joriy qilinishi natjalarining ijobiyligi, shuningdek, natjalarning solishtirilishi, baholash mezonlari bo'yicha va ularning adekvatliligi, tadqiqotning ijobiyligi natjalarini ushbu fan sohasida olingan ma'lumotlar bilan qiyosiy taqqoslanishi bilan ta'minlanadi.

## **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pnevmomexanik yigirish mashinasi uchun ishlab chiqilgan takomillashtirilgan transportirovkalash kanalida tolalar harakati, ip sifatiga omillarning (kamera aylanish tezligi, kanal ichidagi havo tezligi va kanal qirralarining qiyalik burchagi) ta'sir darajasini aniqlash va omillarni o'zgartirganda ip sifatini bashorat qilish imkonini beradigan regressiya tenglamalari olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati mavjud pnevmomexanik yigirish mashinalarining turlari va texnologik imkoniyatlarini tadqiq etib, ularning kamchiliklarini inobatga olib, yangi konstruktsiyadagi qurilmalar yaratilganligi; takomillashtirilgan qurilmani ishlab chiqarishga joriy etish natijasida ipning fizik-maxanik xossalaringning yaxshilanganligi va pnevmomexanik yigirish mashinasini unumдорligini oshirishga erishilganligi, pnevmomexanik ip sifatiga ta'sir etuvchi omillarni boshqarish, jarayonlarni barqarorlashtirish va qurilmalarni rostlash nafaqat yigirish jarayoniga, balki keyingi texnologik jarayonlarga ham ta'sir ko'rsatishi tajribalar natijasida asoslanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Takomillashtirilgan transportirovka kanalini qo'llab pnevmomexanik yigirish mashinasida ip yigirish jarayonini ratsionallash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

pnevmomexanik yigirish mashinasining takomillashtirilgan transportirovkalash kanal konstruksiyasiga O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining ixtiroga patenti olingen (Pnevmomexanik yigirish mashinasining tolalarni uzatuvchi transportirovka kanali № IAP 7863, 05.11.2024 yil). Natijada transportirovkalash kanalning takomillashtirilgan konstruksiyasini qo'llash pnevmomexanik usulda keng assortimentli sifatli ip ishlab chiqish imkonini bergen.

pnevmomexanik yigirish mashinasida takomillashtirilgan transportirovkalash kanalini qo'llab mashina asosiy ishchi organlari ratsional paramertlari "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi tizimidagi korxonalarda, xususan "Baland Chaqir textile" MCHJ korxonasida joriy etilgan ("O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasining 2025 yil 31 iyuldagи № 04/25-1872 sonli ma'lumotnomasi). Natijada yangi konstruksiyadagi takomillashtirilgan transportirovkalash kanali qo'llanilganda yigirilgan ipning solishtirma uzelish kuchi 17,5 % ga ortdi hamda ipning chiziqiy zichligi bo'yicha variatsiya koefitsiyenti 9,3% ga, tukdorlik darajasi 20,0 % ga kamayishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 11 ta, shu jumladan 5 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy ishlар chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy журнallarda va Skopus bazasidagi журнallarda 1 maqola chop etilgan, hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi tomonidan 2 ta ixtiroga patent olingen.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 103 betdan tashkil topgan.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati aks ettirilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ohib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Pnevmomexanik usulda ip yigirish texnika va texnologiyalarining holati**” deb nomlangan birinchi bobida urchuqsiz yigirish mashinalarining rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlarni tahlili, pnevmomexanik yigirish mashinasida texnologik havoni ishlatilish holati tahlili, ip yigirish va ip xossalari yaxshilash bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

To‘qimachilik texnologiyasiga oid jurnallar, maqolalar, ilmiy to‘plamlar, monografiyalar, dissertatsiyalar, ilmiy va o‘quv adabiyotlaridan foydalanilgan. Shuningdek, sohaga oid internet ma’lumotlari ham o‘rganilgan.

Dunyoda Rieter (Shvetsariya), Saurer-Schlafhorst (Germaniya), Saurer-Czech (Chexiya), Savio (Italiya) firmalarining pnevmomexanik yigirish mashinalari samarali ishlatilmoqda. Ular tomonidan texnik parametrlari va avtomatlashtirish darajasi bilan farqlanadigan turli xil markadagi pnevmomexanik yigirish mashinalari ishlab chiqarilmoqda.

Yuqori samarali zamonaviy Saurer-Schlafhorst (Germaniya), Rieter (Shvetsariya), «Saurer Chex» (Germaniya), pnevmomexanik yigirish mashinalaridagi yangiliklari va samaradorliklari tahlil qilindi.


O‘rganilgan adabiyotlar tahlilidan shu ma’lum bo‘ldiki tolalarni transportirovka kanalidagi havo oqimi maydoni juda muhim ro‘l o‘ynaydi. Chet el olimlarning ilmiy tadqiqot izlanishlari natijasida diskret tolalar oqiminini yigirish kamerasiga transportirovkalash jarayonida kanalning kirish qismida zararli uyurmalarining hosil bo‘lishi ma’lum bo‘lgan. Uyurma hosil bo‘lishi sababli tolalar chigallashib tugunaklar hosil bo‘lgan. Bu esa yigirish kamerasiga diskret tolalar oqimini bir maromda ta’minlashga to‘sinqinlik qilib, ip yigirish jarayonida uzilishlar sonini ortishiga olib kelishi aniqlangan. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida transportirovkalash kanalining kirish va chiqish qismi yuzalari hamda uzunligi o‘zgartirilib taqdiqotlar o‘tkazilgan. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida transportirovkalash kanalining uzunligini oshirish yoki kirish maydonini qisqartirish uyurmalarini kamaytirishi mumkinligi aniqlangan, ammo ularni bartaraf eta olmaydi degan hulosaga kelingan. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida va yigirilgan ipning fizik-mexanik

xossalari tahlillari natijasiga ko‘ra tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan.

Dissertatsiyaning “**Pnevmomexanik yigirish mashinasini diskret tolalar oqimini transpartirovkalash kanalining konstruktiv parametrlarini hisoblash**” deb nomlangan ikkinchi bobida diskret tolalar oqimini transpartirovkalash kanalining konstruksiysi to‘g‘rilash va parallellashtirishga ta’siri, pnevmomexanik yigirish mashinasining takomillashtirilgan transpartirovkalash kanalini ishlab chiqish, takomillashtirilgan transpartirovkalash kanalidagi tolalar oqim harakatining tadqiqoti hamda transpartirovkalash kanalidagi tolalar oqimi tezliklarini harakati tadqiqoti o‘rganilib, yigirish kamerasida shakllanayotgan ipning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari tahlili tadqiqotlari yoritilgan.

Yigirish kamerasiga transpartirovkalash kanali orqali tolalarni uzatish jarayonida kanalning kirish qismida hosil bo‘ladigan zararli uyurmalarini bartaraf etish maqsadida transpartirovkalash kanalining takomillashtirilgan konstruksiysi loyihalandi.

Takomillashtirilgan konstruksiyalı transpartirovkalash kanalining asosiy vazifasi diskret tolalar oqimini bir hil meyorda va paralel holda uzatish orqali uzelishlar sonini va tukdorlik darajasini kamaytirish evaziga yigirilayotgan ip pishiqligini oshirishdan iborat.




**1-rasm.Takomillashtirilgan transpartirovkalash kanalining umumiy ko‘rinishi**

Konstruktsiya ajratgich 1 va tolalarni transpartirovka kanali 2 ni o‘z ichiga oladi. Transportirovka kanali 2 kesilgan piramida ko‘rinishida tayyorlangan, qirralari 3 "a" burchak ostida burligan.

Konstruktsiya quyidagicha ishlaydi. Yigirish kamerasining aylanishi natijasida hosil bo‘lgan so‘ruvchi havo orqali diskret tolalar oqimi yigirish kamerasiga ajratgich

1 va transportirovkalash kanali 2 orqali uzatiladi. Shu bilan birga, tolalarning transportirovkalash kanali 2 ning tekis yuzali qirralari 3 sirtida tolalar o‘zaro ta’sir maydonining ortishi tufayli ular orasidagi ishqalanish ortadi. Bu kanal 2 da tolalarni transportirovkalash vaqtida ularning to‘xtab qolishini sezilarli darajada kamayishiga olib keladi. Transportirovkalash kanalining ko‘p qirrali va qirralarni burchak ostida buralgan qilib yasalganligi tolalarni uzatish vaqtida chigallanib qolishini va tugunaklar hosil bo‘lishini oldini oladi. Bundan tashqari, takomillashtirilgan transportirovkalash kanalida tolalarni yetarli darajada tekislanishi ta’minlanadi.

Tolalar oqimining transportirovka kanalidan o‘tib yigirish kamerasiga uzatish jarayonidagi harakatini nazariy tahlilida tolalarni parallelelligini ta’minlashni amalga oshirishda transportirovkalash kanalining ratsional parametrlarini to‘g‘ri tanlash orqali quyidagi hisoblash ishlarida amalga oshirilgan.



**2-rasm. Transportirovkalash kanalidagi tolalar oqimining harakat sxemasi**

Transportirovkalash kanalining kirish va chiqish qismidagi yuzalarining qiymatlari keltirilgan:  $S_1 = 10 \text{ sm}^2 \div 20 \text{ sm}^2$ ;  $S_2 = 5 \text{ sm}^2 \div 9 \text{ sm}^2$ .

$\vartheta$  – tezligning o‘zgarishi tolalarni transportirovkalash kanalida bir hilda parallel bo‘lishini ta’minlashi kerak.

Tolalarni transportirovkalash kanalidagi xarakat differensial tenglamasi tuzildi.

$$m \cdot \ddot{x} = 0.5 \cdot C \cdot A \cdot \rho \cdot v^2 \cdot \cos^2 \alpha \quad (1)$$

Bu yerda:  $A = \frac{3\sqrt{3}}{2}(a^2 + b^2) + 6 \cdot \frac{a+b}{2} \cdot L$  -kesik peramidaning to‘la yuzasi;  $S_1 = \frac{3\sqrt{3}a^2}{2}$  –transportirovka kanalining kirish qismi yuzasi;  $S_2 = \frac{3\sqrt{3}b^2}{2}$  –transportirovka kanalining chiqish qismi yuzasi;  $\rho$ -tolalar jichligi;  $C$ -havoning qarshilik koeffisiyenti;  $a, b$  – kanalaning kirish va chiqish qismi yuzalarininng tomonlari ;  $L$  – transportirovkalash kanalining uzunligi.  $v$  –havo tezligi.

Eyler qonuniyatidan foydalanib tolalar oqimining kanal bo‘ylab harakati statsionar deb baholanadi va yuqoridagi transportirovkalash kanalining parametrlarini (1) differensial tenglamaga qo‘yilib tolalar oqimini harakati ifodalandi.

$$m \ddot{x} = 0.5C \left( \frac{3\sqrt{3}}{2}(a^2 + b^2) + 3(a + b) \cdot L \right) \vartheta^2 \cos^2 \alpha \quad (2)$$


$$m \ddot{x} = 0.5 \frac{C}{m} \left( \frac{3\sqrt{3}}{2}(a^2 + b^2) + 3(a + b) \cdot L \right) \dot{x}^2 \cos^2 \alpha \quad (3)$$

Transportirovkalash kanalidagi tolalar oqimining harakat tenglamasi olindi.


$$x = \frac{2 \cdot m \cdot \vartheta_0}{C \cdot \cos^2 \alpha} \left( \frac{2}{\frac{3\sqrt{3}}{2}(a^2 + b^2) + 6(a + b) \cdot L} \right) \quad (4)$$

(4) ifodadan tolalarni kanaldagi harakatini havo tezligiga, kanalning kirishdagi va chiqishdagi yuzalariga hamda uzunligini qiyalik burchagiga bog'liqligini Maple dasturidan foydalanib grafiklar va tahlilari keltirilgan.

Transportirovka kanalidagi tolalar oqimini paralelligini hamda bir tekis uzlusizligini ta'minlashda havo oqimining tezligini va kanal qirralari qiyalik burchagini tolalar oqimiga ta'siri o'rghanildi. Natijada havo oqimining tezligini  $\vartheta_1 = 45 \text{ m/s}$  qiymatida va qiyalik burchagini  $\alpha_2 = 20^\circ$  qiymatlarida turli xil holatda kelayotgan tolalar oqimini to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlanishiga erishildi (3-4 rasm).



**3-rasm. Havo tezligining turli xil  
1)  $\vartheta_1=40 \text{ m/s}$ , 2)  $\vartheta_2=45 \text{ m/s}$ , 3)  $\vartheta_3=50 \text{ m/s}$  qiymatlarida tolalar oqim harakatining transportirovkalash kanalining uzunligiga bog'liqlik grafigi**



**4-rasm. Transportirovkalash kanali qirralarining qiyalik burchagini turli xil  
1)  $\alpha_1 = 15^\circ$ , 2)  $\alpha_2 = 20^\circ$ , 3)  $\alpha_3 = 25^\circ$  qiymatlarida tolalar oqim harakatining transportirovkalash kanalining uzunligiga bog'liqlik grafigi**

Kanaldagi tolalar oqimiga qarshilik kuchi tenglamasidan foydalanib, turli xil oqimda kelayotgan tolalar uchlarini to'grilash va paralellashtirish shu orqali notekslikni kamaytirib ip sifatiga ta'sirini tahlili ko'rib chiqildi.

$$F = k \cdot \vartheta_H^2 \quad (5)$$

Tolalarni kanaldagi  $\vartheta$  tezligini takomillashgan transportirovkalash kanali yuzasiga bog'liqlik ifodasi hosil qilindi.

Transportirovkalash kanalining kirishdagi va chiqishdagi yuzalarining o'zgarishi natijasida tolalar oqimining havo oqimi tezligiga bog'liqlik ifodalari hosil qilindi (6).

$$S_1 = \frac{3\sqrt{3}b^2}{2} \quad S_2 = \frac{3\sqrt{3}a^2}{2} \quad (6)$$

(6) ifoda kanalning kirishdagi va chiqishdagi yuzalarini aniqlash formulalari. Kanal kesik konus shaklda bo'lganligi sababli kanalning qiyalik burchagini tomonlariga bog'liqlik ifodasi quyidagicha aniqlandi.

$$\cos\alpha = \frac{b-a}{2l} \quad (7)$$

(6) tenglikni (7) tenglikka qo‘yib transportirovkalash kanali qirralarining qiyalik burchagini kanalining kirishdagi va chiqishdagi yuzalariga bog‘liqlik tenglamasi aniqlandi.

$$\cos\alpha = \frac{\sqrt{2S_1} - \sqrt{2S_2}}{2l\sqrt{3\sqrt{3}}} \quad (8)$$


Tolalarini kanaldagi  $\vartheta_H$  tezligini takomillashgan transportirovka kanali yuzasiga va tolalar oqimini kirishdagi tezligiga bog‘liqlik ifodasi hosil qilindi.

$$\vartheta_H = \vartheta \left( \frac{\sqrt{2S_1} - \sqrt{2S_2}}{12\sqrt{3} \cdot l} \right) \quad (9)$$


(9) transportirovka kanalidagi tolalar oqim tezligini ifodasini (5) tenglikka qo‘yib diskret tolalar oqimiga qarshilik kuchi aniqlandi.

$$F = k \cdot v^2 \cdot \left( \frac{\sqrt{2S_1} - \sqrt{2S_2}}{12\sqrt{3} \cdot l^2} \right) \quad (10)$$

(10) tenglikni Maple dasturidan foydalanib tolalar harakatini transportirovka kanalidan yigirish jarayoniga o‘tishdagi traektoriyalari aniqlandi.



**5-rasm. Transportirovkalash kanalidagi tolalar oqimiga qarshilik kuchini havo oqimining turli xil 1)  $\vartheta_1 = 40 \text{ m/s}$ , 2)  $\vartheta_2 = 45 \text{ m/s}$ , 3)  $\vartheta_3 = 50 \text{ m/s}$  tezliklarida kanal uzunligiga bog‘liqlik grafigi.**




**6-rasm. Transportirovkalash kanalidagi tolalar oqimiga qarshilik kuchini kanalni kirishdagi yuzasining turli xil  $S_1 = 10 \text{ sm}^2$ ,  $S_2 = 15 \text{ sm}^2$ ,  $S_3 = 20 \text{ sm}^2$  qiymatlarida kanal uzunligiga bog‘liqlik grafigi.**

Tolalarini transportirovkalash jarayonida havo oqimining turli hil tezliklarida kanal ichida tolalar chigallashishi va tugunaklarning hosil bo‘lishi ma’lum. Tolalar oqimining transportirovkalash kanali kirish va chiqish qismidagi yuzasi, havo oqimining tezligi turli xil qiymatlarda o‘rganilib, Maple dasturi yordamida grafiklar olindi. Yuqoridagi 5-6-rasmlarda tolalar oqimining transportirovkalash kanal ichidagi harakatiga qarshilik qiluvchi kuchning o‘zgarishi tahlili keltirilgan. Bunda havo oqimi tezligining  $\vartheta = 40 \text{ m/s}$ , qiymatida hamda transportirovkalash kanalining kiruvchi yuzasi  $S_2 = 15 \text{ sm}^2$ , chiquvchi yuzasi  $S_1 = 7 \text{ sm}^2$  qiymatlarida kanal ichidagi tolalar oqimining uzlusizligi hamda parallellegi ta’minlanishi asoslangan.

Nazariy tajribalar asosida “Solidwork” dasturi yordamida mavjud va takomillashtirilgan transportirovkalash kanallarining 3d modellari yaratildi.

Pnevmomexanik yigirish mashinasining parametrlari: havo bosimi, kamera tezligi, temperatura kabi ko'rsatkichlar dasturga mavjud va takomillashtirilgan transportirovkalash kanallari uchun ham bir hilda kiritildi hamda kanal ichida tolalar harakati kuzatildi.



**7-rasm. Transportirovkalash kanali ichidagi tolalar harakati**

a) Mavjud transportirovkalash kanali

b) Takomillashtirilgan transportirovkalash kanali

7-a rasmdan kanal ichida diskret tolalar oqimini yigirish kamerasiga transportirovkalash jarayonida uyurmalarning hosil bo'lishi yaqqol ko'rindi. Ushbu uyurmalar hosil bo'lishi natijasida chigalliklar, tugunaklar paydo bo'lib uzilishlar sonining ortishiga olib keladi. Bu esa ipdning asosiy ko'rsatkichlaridan biri uzish kuchi va ipning notekeisliga kata ta'sir qiladi. Ushbu uyurmalarni bartaraf etish maqsadida tayyorlangan olti qirrali, qiyalik burchagi  $20^{\circ}$  bo'lgan takomillashtirilgan transportirovkalash kanali 7-b rasmda keltirilgan bo'lib, kanal ichida tolalar bir tekis va parallel holda yigirish kamerasiga uzatilayotganini ko'rish mumkin. Bu shuni anglatadiki o'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijasida ipning sifat ko'rsatkichlari yaxshilanishiga erishish mumkinligi aniqlandi.

Dissertatsyaning "**Takomillashtirilgan transportirovka kanalining ip xossalariiga ta'sirini o'rganish**" deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqotni o'tkazish metodikasi, takomillashtirilgan transportirovka kanalining yigirilgan ip fizik-mexanik xossalariiga ta'sirini qiyosiy baholash, to'la omilli tajriba yordamida ip sifatiga ta'sirining ahamiyatini baholash va takomillashtirilgan konstruksiyadagi kanalni ishlatalishda pnevmomexanik yigirish mashinasining shaylash parametrlarini ratsionallash bo'yicha tajribaviy tadqiqotlar yoritilgan.

Ip yigirish uchun BD-330 pnevmomexanik yigirish mashinasi texnologik parametrlarini ratsionallashda ip xossalariiga ta'sir etuvchi omillar (kiruvchi parametrlar) quyidagicha tanlab olindi:

$x_1$ -kameranering tezligi, -70000; 75000; 80000  $min^{-1}$

$x_2$  - kanal ichidagi havo tezligi 40; 45; 50 m/s

$x_3$ -transportirovkalash kanali qirralarining qiyalik burchagi-15°; 20°; 25°

Ratsional parametri sifatida (chiquvchi omil):

$\bar{Y}_1$  - Solishtirma uzish kucha, sN/teks

$\bar{Y}_2$  - Ipning noteksligi, CVm (%)


Ikki variantdagagi iplarning sifat ko'rsatkichlari taqqoslandi:

-nazorat (mavjud transportirovkalash kanali);

-tajriba (takomillashtirilgan transportirovka kanali).

Tajriba variantda BD-330 pnevmomexanik yigirish mashinasida uchta kameraga yangi konstruksiya dagi transportirovka kanali o'rnatildi. Konstruksiya kanalning ichki yuzasi bilan tolalar orasidagi ishqalanish natijasida hosil bo'ladigan chigallik va tugunaklarni oldini oladi.

Chiziqiy zichligi 20 tekсли (Ne 30) ip BD-330 pnevmomexanik yigirish mashinasida o'quv laboratoriyasi yigirish rejasiga muvofiq yigirildi.



### 8-rasm. Ip sifatining asosiy ko'rsatlichlari

Taqqoslanayotgan variantlardagi iplarining asosiy fizik-mexanik xossa ko'rsatkichlari 8-rasmda tasvirlangan.

Tajriba variantdagagi ipning solishtirma uzish kuchi nazorat variantidan 0,80 sN/teksga yuqori bo'lib, 12.05 sN/teksga teng (nazorat variantida 11.25 sN/teks) Uster Statistics me'yori bo'yicha tajriba variant 50 % sinfga, nazorat variant 95 % sinfga to'g'ri keldi. Kesim bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti nazorat variantidan 1,3 % ga kam bo'lib CVm=12,72% (nazorat variantida esa 14,02%) Uster Statistics me'yori bo'yicha tajriba variant 5 % sinfga, nazorat variant 25 % sinfga to'g'ri keldi.

Ipning kesim bo'yicha kvadrat notekisligi (Cm) o'rtacha 14,02 dan 12,72% ga kamaydi.

Takomillashtirilgan konstruksiyadagi transportirovkalash kanalini pnevmomexanik yigirish mashinasiga o'rnatishda: kameraning tezligi ( $x_1$ ), kanal ichidagi havo tezligi ( $x_2$ ) va transportirovkalash kanali qirralarining qiyalik burchagi ( $x_3$ ) omillarining ratsional mosligini aniqlash uchun to'la omilli tajriba TOT 3<sup>2</sup> o'tkazildi. Omillarning o'zgarish darajasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

### **Omillarning o'zgarish darajasi**

Omillar		O'lchov birligi	O'zgarish sathlari			O'zgartir ish oralig'i
Nomi	Kodlari		-1	0	1	
Kameraning tezligi	$x_1$	$min^{-1}$	70000	75000	80000	5000
Kanal ichidagi havo tezligi	$x_2$	$m/s$	40	45	50	5
Transportirovkalash kanali qirralarining qiyalik burchagi	$x_3$	gradus	15	20	25	5

Tajribalar dastlab tasodifiy sonlar jadvallaridan foydalanib, randomizatsiya qilindi va ular bo'yicha uch takrorlikda o'tkazildi. Tajriba natijalariga ishlov berish qoidasiga binoan dastlab tajriba takroriyligi aniqlandi. Buning uchun Koxren mezonining hisobiy kattaligi topilib, jadvaliy qiymati bilan qiyoslandi. Shuningdek, tajriba natijalarini standart usullarda qayta ishlab, chiquvchi parametrlar tajriba ipning solishtirma uzish kuchi va ipning chiziqiy zichligi bo'yicha noteksligi ko'rsatkichlarining regression tenglamalari olingan. Regressiya koeffitsiyentlarini ahamiyatga molikligini Styudent mezoni yordamida, tenglama adekvatligi esa Fisher mezoni yordamida aniqlandi. Demak, ipning solishtirma uzish kuchi va noteksligi bo'yicha regression tenglamalar adekvatdir, bu o'z navbatida texnologik jarayonning barqarorligini ko'rsatadi.

### **Ipning solishtirma uzish kuchi, sN/teks**

$$\hat{y} = 11,5703 + 0,2105x_1 - 0,1716x_2 - 0,3115x_3 + 0,2825x_1x_2 - 0,3098x_2^2 \quad (11)$$

### **Ipning noteksligi bo'yicha olingan regressiya tenglamasi. %**

$$\hat{y} = 12,3452 + 0,2348x_1 + 0,5421x_2 - 0,4418x_3 + 0,7667x_1x_2 - 0,7053x_2^2 \quad (12)$$


2-jadval

**To‘qqizta variantda olingan ipning fizik-mexanik xossalari asosiy ko‘rsatkichlarining o‘rtacha natijalari**

№	Ko‘rsatkichlarning nomlanishi	Variantlar								
		1	2	3	4	5	6	7	8	9
1.	Variantlar tavsifi: -yigirish kamerasining aylanish chastotasi, $\text{min}^{-1}$ - kanal ichidagi havo tezligi -transportirovkalash kanali qirralarining qiyalik burchagi	70000 40 15	70000 45 20	70000 50 25	75000 40 15	75000 45 20	75000 50 25	80000 40 15	80000 45 20	80000 50 25
2.	Ipning chiziqiy zichlik, teks (Ne)	20,02	19,80	19,88	20,28	20,01	19,81	20,19	20,08	19,85
3.	Ipning variatsiya koeffitsiyenti %, CV <sub>m</sub>	12,16	12,25	12,27	12,09	12,05	12,57	12,53	12,48	12,67
4.	Ipning uzish kuchi, sN	230,37	217,46	214,50	253,76	253,3	228,86	222,43	238,20	225,69
5.	Ipning solishtirma uzish kuchi, sN/teks (R <sub>0</sub> )	11,507	10,983	10,790	12,513	12,66	11,553	11,017	11,863	11,370
6.	Uzish kuchi bo‘yicha variatsiya koeffitsiyenti, % (Cv)	6,8	6,75	6,72	6,84	6,67	6,69	6,71	6,81	6,74
7.	Sifat ko‘rsatkichi, R <sub>0</sub> / Cv	1,69	1,62	1,60	1,82	1,89	1,72	1,64	1,74	1,68
8.	Uzayish, %	5,10	5,14	5,18	5,13	5,35	5,24	5,2	5,04	5,08
9.	Ipda tolalar pishiqligidan foydalanan koeffitsiyenti, KIP	0,446	0,459	0,454	0,458	0,466	0,451	0,446	0,454	0,446
10.	Yigirish kamerasining ish unumdorligi, kg/s (1000 kamera uchun)	70,65	69,88	70,164	75,93	75,63	74,91	81,43	80,99	80,06
11.	Mashinada ipning uzilishi: - 1soatda 1000 kamera uchun	39	37	35	35	32	34	44	41	38

Olingan iplarning fizik mehanik xossalari 2-jadvalda keltirildi. Ipning variatsiya koeffitsiyenti, uzish kuchi, solishtirma uzish kuchi, mashinada ipning uzilishlar sonining eng yaxshi ko‘rsatkichlari 5-variantga to‘g‘ri keldi.


Ipning solishtirma uzish kuchi va noteksligi bo'yicha regression tenglamalarni tahlil qilish va tushunarli bo'lishi uchun "Mathcad" dasturidan foydalanib ularning izochiziqlari olindi.



## **9-rasm. Ipning solishtirma uzish kuchi bo'yicha olingan tenglamaning grafik ko'rinishlari**

